

# MARKAZIY OSIYO ME'MORIY MEROSINI MUHOFAZA QILISH VA MUZEYLASHTIRISHNING TARIXIY HAMDA ILMIY ASOSLARI



Ziyayeva Rano Alimjanovna

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi xodimi

[ziyayevvarano4@gmail.com](mailto:ziyayevvarano4@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21218130>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo me'moriy merosini muhofaza qilish va muzeylashtirishning tarixiy hamda ilmiy asoslari tahlil qilingan. Me'moriy yodgorlikarning fragmental bezaklari milliy me'morchilik an'alarini o'rganishda muhim manba sifatida baholanib, ularning tarixiy va badiiy xususiyatlarini tiklashdagi ahamiyati yoritilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va Turkistonda madaniy merosni muhofaza qilish sohasida shakllangan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar, shuningdek, sovet davrining dastlabki yillarida yodgorliklarni davlat ro'yxatiga olish, muhofaza qilish va restavratsiya qilish tizimining shakllanishi ko'rib chiqilgan. Turkomstaris hamda boshqa ilmiy muassasalarning faoliyati, arxeologik va me'moriy yodgorliklarni o'rganish, hisobga olish va muzeylashtirish jarayonlaridagi o'rni tahlil etilgan. Arxeologik germenevtika, fotogrammetriya, fotofiksatsiya va estampaj kabi ilmiy usullarning yodgorliklarni hujjatlashtirish va tadqiq etishda ahamiyati ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda madaniy merosni muhofaza qilish sohasida to'plangan tajriba O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni saqlash tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo'lganini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, me'moriy meros, muzeylashtirish, madaniy merosni muhofaza qilish, arxeologik germenevtika, fotogrammetriya, epigrafika, restavratsiya, tarixiy yodgorliklar, muzey fondlari.

**Аннотация.** В данной статье анализируются исторические и научные основы охраны и музеефикации архитектурного наследия Центральной Азии. Фрагментарные декоративные элементы архитектурных памятников рассматриваются как важный источник изучения национальных архитектурных традиций; раскрывается их значение для реконструкции исторических и художественных особенностей памятников. Исследуются правовые и организационные меры, сформировавшиеся в сфере охраны культурного наследия в Российской империи и Туркестане в конце XIX — начале XX века, а также процесс становления системы государственного учёта, охраны и реставрации памятников в первые годы советской власти. Анализируется деятельность Туркомстарис и других научных учреждений, их роль в изучении, учёте и музеефикации археологических и архитектурных памятников. Показано значение таких научных методов, как археологическая герменевтика, фотограмметрия, фотофиксация и эстампаж, в документировании и исследовании объектов культурного наследия. Результаты исследования подтверждают, что накопленный в Центральной Азии опыт в области

*охраны культурного наследия стал важным фактором формирования и развития системы сохранения историко-культурного наследия Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *Центральная Азия, архитектурное наследие, музеефикация, охрана культурного наследия, археологическая герменевтика, фотограмметрия, эпиграфика, реставрация, исторические памятники, музейные фонды.*

**Abstract.** *This article examines the historical and scientific foundations of the preservation and museification of the architectural heritage of Central Asia. Fragmentary decorative elements of architectural monuments are considered an important source for the study of national architectural traditions, and their significance in reconstructing the historical and artistic characteristics of monuments is highlighted. The study explores the legal and organizational measures developed in the field of cultural heritage protection in the Russian Empire and Turkestan during the late nineteenth and early twentieth centuries, as well as the formation of a system for the state registration, protection, and restoration of monuments in the early years of Soviet rule. Particular attention is given to the activities of Turkomstaris and other scholarly institutions, analyzing their role in the study, documentation, inventory, and museification of archaeological and architectural monuments. The importance of such scientific methods as archaeological hermeneutics, photogrammetry, photographic documentation, and estampage in the recording and investigation of cultural heritage sites is demonstrated. The results of the research confirm that the experience accumulated in Central Asia in the field of cultural heritage preservation became a significant factor in the formation and development of Uzbekistan's system for safeguarding its historical and cultural heritage.*

**Keywords:** *Central Asia, architectural heritage, museification, cultural heritage preservation, archaeological hermeneutics, photogrammetry, epigraphy, restoration, historical monuments, museum collections.*

Milliy me'morchilik an'analari ko'p asrlik tarixiy jarayonlar davomida shakllangan bo'lib, ular nafaqat yirik me'moriy yodgorliklar, balki ularning tarkibiy qismlari-bezak elementlari orqali ham o'rganiladi. Shu jihatdan fragmental bezaklar (ya'ni tarixiy binolardan saqlanib qolgan alohida dekorativ qismlar) me'morchilik tarixini rekonstruksiya qilishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Fragmental bezaklar-ganch o'ymakorligi bo'laklari, koshin parchalari, yog'och bezak elementlari, naqshli plitkalar va boshqa dekorativ qismlar, yo'qolgan yoki buzilgan me'moriy yodgorliklarning badiiy va texnologik xususiyatlarini tiklash imkonini beradi. Ular orqali muayyan davrga xos bo'lgan uslubiy yo'nalishlar, naqsh kompozitsiyasi, rang yechimlari hamda ustalar maktablari aniqlanadi. Shuningdek bu bezaklar orqali me'morchilikdagi an'analarning global jarayonlari bilan tanishtirish imkonini beradi. Masalan, Temuriylar davri me'morchiligiga[2] xos koshinkorlik Buxoro va Xiva me'morchilik maktablariga oid ganch o'ymakorligi namunalari orqali hududiy uslubda butkul farq qiladi.

Markaziy Osiyo hududidagi saqlanib qolgan me'moriy ob'yektlarning aksariyati VII-XV asrlarga oid. Bu borada Markaziy Osiyo me'morchiligi novatori sifatida ilmiy asosda tadqiq etgan olimlardan G. A. Pugachenkova va L. I. Rempel hisoblanadi. Mualliflar mazkur davr me'morchilikning yuksalish bosqichi sifatida baholaydi hamda, Samarqand, Buxoro va Termiz me'moriy obidalarining tahlillari orqali o'rta asrlar arxitekturasi shakllanish xususiyatlarini ochib beradi[19].

Markaziy Osiyo me'moriy bezak san'ati va arxitekturasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar muallifi L. I. Rempel saqlangan yodgorliklarning asosiy qismi IX-XV asrlarga tegishli ekanini ta'kidlaydi. Uning bu boradagi "Архитектурный орнамент Узбекистана"[20] ilmiy nashri

Markaziy Osiyo me'moriy merosini ilmiy asosda o'rganish, restavratsiya qilish va xalqaro miqyosda targ'ib etishda muhim nazariy manba sifatida baholanadi. Bu esa xududning me'moriy merosining jahon madaniy merosi tizimidagi o'rnini mustahkamlash, uning ilmiy o'rganilishi va targ'ib qilinishida L. Rempel tadqiqotlarining muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Yuqoridagi tadqiqotlar samarasi natijasida mualliflarning ilmiy an'anasini davom ettirgan holda bir nechta olimlar tadqiqotlar uzviyligini ta'minladilar. Xususan, arxitektura fanlari doktori M. S. Bulatov o'zining "Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV вв." [6] ilmiy nashrida Markaziy Osiyo me'morchiligidagi geometrik mutanosiblik va kompozitsiya masalalarini tahlil qilgan bo'lib, ushbu jarayonda Rempel mas'ul muharrir sifatida qatnashgan.

Keyinchalik esa yangi ilmiy jarayonlar negizida G. A. Pugachenkova va L. I. Rempel hamkorligida "Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана" [18] asarini yaratdilar. Bu kitob O'zbekistonning mashhur me'moriy yodgorliklarini ilmiy tavsiflashga bag'ishlangan. Shuningdek, V.A.Nilsen va V.N.Mankovalarning "Архитектурный декор памятников Узбекистана" [15] asari, I. M. Azimovning "Архитектура Узбекитана XVIII-нач. XX вв.: Традиции и локальные особенности" [1] kabi ilmiy ishlarida L. Rempelning mazkur asari O'zbekiston va Markaziy Osiyo me'moriy bezaklarining tarixi, tasnifi, kompozitsion qonuniyatlari va ramziy mazmunini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida ko'p marta tilga olingan. Shu bois keyingi avlod olimlarining tadqiqotlari ma'lum ma'noda olim yaratgan ilmiy maktabning uzviyligini ta'minlagan.

Markaziy Osiyo shaharsozligi va me'morchiligi tarixi bo'yicha fundamental tadqiqotlar muallifi bo'lgan M. Ye. Masson o'z ilmiy ishlarida VII-XV asrlarni mintaqa me'morchiligi taraqqiyotining eng muhim bosqichi sifatida baholagan. Uning "Краткий очерк истории Средней Азии в археологическом отношении" [12] asarida va Markaziy Osiyo shaharlari tarixi va arxeologiyasiga bag'ishlangan boshqa asarlarida masjid, madrasa, maqbara, karvonsaroy kabi me'moriy inshootlar shakllanib, mukammal shaharsozlik tizimiga aylangani ta'kidlangan. Muallif o'zining ilmiy qarashlari asosida 1930-1980-yillarda Markaziy Osiyoda bir qator yirik arxeologik va dala tadqiqotlari tashkil etdi. Xususan, u 1936-1938 yillarda Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasiga [10,11], 1945 yildan boshlab esa Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasiga [13] rahbarlik qildi. Bu ekspeditsiyalar davomida Niso, Marv, Termiz, Afrosiyob va Qashqadaryo vohasidagi o'rta asr shahar xarobalari o'rganildi. M.Ye.Masson rahbarligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekiston muzeylari arxeologik hamada me'morchilik ashyolariga oid kolleksiyalar negizida sezilarli darajada boyib bordi.

Shuningdek, V. Bartold o'zining "Туркестан в эпоху монгольского нашествия" [5] asarida Markaziy Osiyodagi arxitektura taraqqiyoti ayniqsa, Temuriylar davrida yuqori bosqichda rivojlanganini ta'kidlaydi. Markaziy Osiyo arxitekturasiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlardan biri bo'lgan "Всеобщая история архитектуры" [3] ko'p jildli nashrida ham mintaqadagi asosiy me'morchilik yodgorliklari o'rta asrlarga oid ekani ilmiy jihatdan asoslangan. Bu kabi qarashlar keyinchalik xalqaro darajada zamonaviy tadqiqotlarda ham davom etmoqda.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va Turkistonda madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish sohasida muayyan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar shakllana boshladi. Bu jarayon faqat alohida yodgorliklarni ta'mirlash bilan cheklanmay, ularni davlat hisobiga olish, huquqiy muhofaza qilish va ilmiy o'rganish tizimini yaratishga qaratildi. Rossiyada tarixiy va me'moriy yodgorliklarni davlat muhofazasiga olishga doir dastlabki tashabbuslar Pyotr 1 davrida kuzatigan bo'lsada, tizimli davlat siyosati Nikolay I hukmronligi davrida shakllana boshladi. 1926-yilda guberniyalarda saqlanib qolgan qadimiy binolar haqida ma'lumot to'plash to'g'risida farmoyish [8] qabul qilinib, bu tarixiy yodgorliklarni davlat hisobiga

olish tizimiga asos soldi. Keyinchalik arxeologik komissiyalar, arxiv komissiyalari va muzey muassasalarining tashkil etilishi Rossiya hamda Markaziy Osiyo muzey fondlarining shakllanishiga turtki berdi.

1848-yilda qadimiy yodgorliklarni buzishni ta'qiqlash haqidagi qaror[16,B.823-839] qayta tasdiqlandi, 1870-yilgi Shahar nizomi[7] davlat byudjetlari hisobidan moliyalashtirish imkonini berdi. Biroq, mazkur choralar kutilgan natijani bermadi. Buning asosiy sabablari sohaning mahalliy ma'muriy organlar tasarrufida bo'lishi va malakali mutaxassislarining yetishmasligi edi. 1859-yilda tashkil etilgan Arxeologiya komissiyasi qadimiy ashyolarni yig'ish, tarixiy yodgorliklar haqida ma'lumot to'plash va topilmalarni ilmiy jihatdan tavsiflash bilan shug'ullandi[14]. Komissiya muhofaza ishlarini bevosita amalga oshirmagan bo'lsa-da, arxeologik merosni tizimli o'rganish va muzey fondlarini boyitishda muhim o'rin tutdi. 1869-yilgi birinchi arxeologik qurultoyda yodgorliklarni muhofaza qilish masalasi muhokama qilindi[23]. Keyingi yillarda arxiv komissiyalari tashkil etilib, ular qadimiy yodgorliklar va tarixiy hujjatlarni saqlash vazifasini bajardi.

1901-1908-yillarda madaniy merosni muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha maxsus idoralararo komissiyalar faoliyat yuritdi. 1908-yilda ishlab chiqilgan "Qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilish to'g'risida"gi nizomda[8] yodgorliklarni madaniy meros ob'yekti sifatida e'tirof etish va ularga zarar yetkazganlik uchun huquqiy javobgarlik belgilash kabi muhim tamoyillar mustahkamlandi.

Shunga qaramay, Turkistondagi yodgorliklarni muhofaza qilish ishlari qoniqarli darajada emas edi. Samarqanddagi Registon, Ishratxona va boshqa tarixiy obidalarini saqlash bo'yicha ko'rilgan choralar yetarli natija bermadi. Faqat xorijlik mutaxassislarining murojaatlaridan keyin 1895-yilda yodgorliklarni saqlash uchun davlat mablag'lari ajratildi[4, 13]. Sovet boshqaruv tizimi joriy etilgach, madaniy merosni muhofaza qilish sohasiga davlat darajasida yondashuv kuchaydi. Moskvada Boshmuzey (Главмузей\*), Petrogradga esa Moddiy madaniyat tarixi akademiyasi[26] tashkil qilinib, ular Ittifoq hududidagi yodgorliklarni muhofaza qilish, ta'mirlash va restavratsiya ishlariga rahbarlik qildi. Bu muassasalar muzey fondlarini arxeologik, etnografik va numizmatik kolleksiyalar bilan boyitishda muhim rol o'ynadi.

Turkistonda qadimiy yodgorliklarni o'rganish ishlari Rossiya istilosidan keyin faollashdi. Arxeologiya va tarixga oid maqolalar matbuotda muntazam ravishda chop etila boshladi. Shu bilan birga, mahalliy kolleksionerlar – Akram Asqarov, Mirza Buxoriy, Abu Said Mahzum va Muhammad Vafo kabilar tomonidan noyob kolleksiyalar shakllantirildi. Ayniqsa, Akram Asqarov[24] va Mirza Buxoriyning arxeologik va numizmatik to'plamlari muzeylar fondlarini boyitishga xizmat qildi[9].

1867-yildan boshlab Turkistonda arxeologik tadqiqotlar tashkil etildi. Biroq, ilmiy nazoratsiz qazuv ishlari ham keng tarqalgan bo'lib, bu ko'plab arxeologik ma'lumotlarning yo'qolishiga sabab bo'ldi. Shu munosabat bilan 1871-yilda ruxsatsiz qazish ishlari taqiqlandi. 1895-yilda Toshkentda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi tashkil qilinib, u arxeologik tadqiqotlar va yodgorliklarni muhofaza qilish ishlarida muhim o'rin tutdi.

Turkiston hududida, ayniqsa Samarqandda saqlanib qolgan qadimiy musulmon me'morchiligi yodgorliklarining beqiyos ilmiy ahamiyatini hisobga olib, birinchi navbatta og'ir

---

\* Glavmuzey-bu 1920-1930 yillarda Rossiyada muzeylarni boshqargan markaziy davlat idorasi bo'lib, barcha davlat muzeylari, ularning fondlarini hisobga oladi va nazorat qiladi. Shuningdek, tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilib, muzey kolleksiyalarini bir muzeydan boshqasiga o'tkazish, muzey ashyolarini restavratsiya qilish va tizimdagi ilmiy ishlarga rahbarlik qilish vazifalarini nazorat qilgan. Ushbu idora 1920 yilda Narkompros (Ma'rifat xalq komissariati) tizimida muzey bo'limi asosida shakllangan bo'lib, keyinchalik to'liq markaziy idoraga aylangan.

ahvoldagi tarixiy obidalarni saqlab qolish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ko'rish zarur dib hisoblaganlar. Sobiq Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining 1921-yil 26-iyundagi 151-sonli qaroriga muvofiq, Qo'mita hamda uning Samarqand komissiyasi (1920-yilda tashkil etilgan) tomonidan qadimiy yodgorliklarni saqlashga qaratilgan barcha ishlar "navbatdan tashqari va favqulodda muhim" deb e'tirof etildi[22, B.43-55]. Shu bilan bir vaqtda O'rta Osiyo muzeylar va qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi Turkistonning ulkan hududi bo'ylab tarqoq holda joylashgan, turli davrlarga mansub hamda tarixiy, me'moriy va badiiy jihatdan eng qimmatli hisoblangan monumental yodgorliklarni aniqlash ishlari bilan ham shug'illandi. Bu ishlar mazkur yodgorliklarni muhofaza qilish maqsadida davlat ro'yhatiga olish uchun amalga oshirildi.

Natijada, sobiq Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining 1923 yil 27 martdagi 52-sonli, 1923-yil 5-noyabrdagi 173-sonli qarolari, shuningdek O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi hamda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1925-yil 4-maydagi 27-sonli qarori qabul qilinib, Turkistonning tarixiy va arxeologik jihatdan eng qimmatli yodgorliklarini davlat ro'yxatiga olish va ularni to'liq ravishda Qo'mita tasarrufiga o'tkazish belgilandi. Ular O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Qozog'iston hudulariga kiruvchi 64 dona me'moriy obidalarni ro'yhatga olganlar[22, B.44].

Qo'mita faoliyati doirasi faqat me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va ro'yxatga olish masalalari bilan cheklanmagan. Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining 1921-yil 31-iyundagi 178-sonli qaroriga muvofiq, Qo'mita zimmasiga qadimiy monumental yodgorliklar bilan bir qatorda ilmiy, tarixiy yoki badiiy ahamiyatga ega ashyolarni ham ro'yxatga olish vazifasi yuklatilgan. Qarorga ko'ra Qo'mita ruxsatisiz hisobga olingan yodgorliklar va to'plamlarni musodara qilish, biror shaxs yoki tashkilot tomonidan o'tkazilishi, ko'chirilishi, ta'mirlanishishi yoki qayta o'zgartirish kiritilishi taqiqlandi. Qadimiy ashyolar egalariga ularni ro'yxatdan o'tkazish va muhofaza yorliqlari olish huquqi berildi. Davlat ixtiyoriga majburiy o'tkazish faqat yodgorliklar saqlanishi xavf ostida qolgan yoki muhofaza qoidalari buzilgan hollarda amalga oshirilishi belgilangan. Qaror mualliflar tasarrufidagi san'at asarlariga tatbiq etilmagan bo'lsada, ularga muhofaza yorliqlari olish huquqini berdi. Shuningdek, san'at va qadimiy ashyolarni xorijga olib chiqish va sotish taqiqlanib, bunday hollarda Qo'mita roziligi majburiy qilib belgilandi[21].

1923-yil 23-oktyabrdagi 152-sonli qarorga muvofiq Turkiston hududidan ilmiy kolleksiyalarni Turkomstaris ruxsatisiz olib chiqish taqiqlandi. Qo'mita vakolatiga arxeologik tadqiqotlarni tashkil etish ham kirgan. Biroq moliyaviy mablag'lar va mahalliy mutaxassislarining yetishmasligi tufayli arxeologiya sohasidagi ishlar cheklangan miqyosda olib borildi. Shu sharoitda Qo'mita asosiy e'tiborni noqonuniy qazish ishlari va xazina izlovchilikka qarshi kurashga qaratdi, hamda maxsus ruxsatsiz arxeologik qazish ishlarini taqiqladi. Samarqanddagi Afrosiyob shahar qal'asida V. L. Vyatkin rahbarligida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida IX–X asrlarga mansub yirik me'moriy inshoot qoldiqlari va somoniylar davriga oid ko'plab ashyolar aniqlandi.

Qo'mita tarixiy yodgorliklarni vayron bo'lishdan va malakasiz ta'mirlash oqibatlaridan muhofaza qilishga ham alohida e'tibor qaratdi. Qabul qilingan maxsus dekretga ko'ra, hisobga olingan yodgorliklarni muhofaza qilish, ta'mirlash va restavratsiya qilish ishlari faqat Qo'mita yoki uning mahalliy organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Tarixiy yodgorliklarga tutash hududlar Qo'mita ruxsatisiz qurilish va boshqa extiyojlar uchun ajratilishi mumkin emas edi. Markaziy Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi amalga oshirilganidan keyin ham Muzeylar va qadimiy yodgorliklar, san'at hamda tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish ishlari bo'yicha

Qo'mita O'rta Osiyo ahamiyatiga ega organ sifatida saqlab qolindi. Shu munosabat bilan sobiq Turkiston Respublikasi MIK va XKSning 1923-yil 27-martdagi №52 sonli hamda 1923-yil 7-maydagi №70-sonli qarorlarining san'at-tarixiy va arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish, ta'mirlash va restavratsiya qilishga oid qoidalari O'zbekiston SSR tarkibidagi hududiga tadbiiq etildi[22, B.43-55]. Mazkur dekretning qabul qilinishi va uni joylarda qo'llash tartibiga oid yo'riqnoma[17]ning e'lon qilinishi Turkiston uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega edi. Chunki shu vaqtga qadar tarixiy yodgorliklarda mahalliy ustalar tomonidan amalga oshirilgan ta'mir va restavratsiya ishlari ko'p hollarda yodgorlikning asl qiyofasi buzilishiga olib kelgan. Bunga misol tariqasida Buxoro va O'zgdandagi minoralarni restavratsiya qilish jarayonida mahalliy ustalar tomonidan olib borilgan ishlarini keltirish mumkin.

Turkistonda qadimiy yodgorliklarni tizimli o'rganish ishlari XX asr boshlarida shakllana boshladi. Qo'mita ro'yxatga olingan yodgorliklarni tadqiq qilish bilan bir qatorda ularni keyingi yemirilishdan saqlashga ham alohida e'tibor qaratdi. Yodgorliklarni muhofaza qilish nafaqat ilmiy, balki aholining tarixiy xotirasi va madaniy merosga munosabatini shakllantirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etdi. Samarqanddagi Registon ansambli, Shohi Zinda va Bibixonim masjidi, Buxorodagi Poi Kalon majmuasi, Ark qo'rg'oni, Xivadagi Ichan-Qal'a, Shahrisabzdagi Oqsaroy hamda Termiz atrofidagi arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish, ularni ro'yxatga olish va texnik holatini o'rganish ishlari boshlandi. Bu jarayon keyinchalik O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni davlat tomonidan muhofaza qilish tizimining shakllanishiga asos bo'ldi.

Markaziy Osiyo arxeologik merosida germenevtika\* muhim metodologik yondashuv sifatida shakllandi. U arxeologik manbalarni ularning madaniy, tarixiy va ramziy kontekstida talqin qilish imkonini berdi. O'zbekistonda bu yo'nalishning rivojlanishiga olimlardan M.Ye.Masson va G.V.Shishkina katta hissa qo'shdilar. Ularning Qoratepa, Ayritom, Afrosiyob va So'g'd madaniyatiga oid tadqiqotlari arxeologik yodgorliklarni moddiy manba sifatidagina emas, balki muayyan tarixiy davr va ma'naviy muhitni aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa sifatida o'rganish an'anasini shakllantirdi.

Qoratepa, Ayritom va Afrosiyob kabi yodgorliklarning tadqiq qilinishi buddaviylik, zardushtiylik hamda So'g'd madaniyatining ma'naviy-mafkuraviy asoslarini ilmiy jihatdan tiklash imkonini berdi[25]. Bu tadqiqotlar muzeyshunoslik sohasida ham yangi bosqichni boshlab berib, arxeologik muzey majmualarini tashkil etish va ekspozitsiyalarni ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qildi. Arxeologik yodgorliklarni hisobga olish va hujjatlashtirish jarayonida fotogrammetrik usullardan foydalanish rejalashtirilgan bo'lib, ular orqali ob'yektlarning geometrik o'lchamlari, me'moriy hususiyatlari, qurilish materiallari va saqlanganlik darajasi haqida aniq ma'lumotlar to'plash ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, yodgorliklarning qurilish davri, me'morlari va ularga oid yozma manbalarni aniqlash vazifasi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Epigrafik yozuvlarni fotosuratga olish va estampaj\* usuli orqali qayd etish yodgorliklarning xronologiyasi va tarixiy mansubligini belgilashda muhim manba hisoblangan. Bu usullar muzeylashtirish jarayonida ob'yektlarning pasportlashtirilishi, atribusiyasi va ilmiy

---

\* "Arxeologik germenevtika" atamasining ilk bor kim tomonidan fanga kiritilgani haqida ilmiy adabiyotlarda yagona fikr mavjud emas. Lekin, arxeologiyada germenevtik yondashuv mustaqil nazariy yo'nalish sifatida 1980 yillarda Ian Hodder tomonidan ishlab chiqilgan kontekstual (postprosessual) arxeologiya doirasida shakllangan. Keyinchalik Harald Johnsen va Byornar Olsen tomonidan chop etilgan "Germenevtika va arxeologiya: kontekstual arxeologiya falsafasi haqida" maqolasida ushbu yondashuvni falsafiy germenevtika an'anasi bilan bog'lab tahlil qilgan. Johnsen, H., & Olsen, B. (1992). *Hermeneutics and Archaeology: On the Philosophy of Contextual Archaeology*. American Antiquity, 57(3), 419-436.

tavsifini ishlab chiqish imkonini berdi. Shuningdek, epigrafik yozuvlarning nusxalarini saqlash kelajakda yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan manbalarni qayta tiklash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

XXI asr boshlariga kelib, O‘zbekiston me‘moriy epigrafikasini o‘rganish ishlari yangi bosqichga ko‘tarildi. 2010 yildan boshlab F.Abduxoliqov tashabbusi va E.V.Rtveladze ishtirokida “O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar” loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida respublika hududidagi me‘moriy yodgorliklarda saqlangan epigrafik yozuvlar qayta qayd etildi, o‘rganildi, o‘qildi va qayta tahlil qilindi. Natijada 20 jildli kitob-albom nashr qilinib[27], Samarqand, Buxoro va boshqa tarixiy shaharlardagi yodgorliklarning epigrafik merosi ilmiy asosda hujjatlashtirildi. Shu tariqa, epigrafik yozuvlarni fotofiksatsiya va estampaj usullari orqali qayd etish, ularni ilmiy o‘rganish va muzey fondlarida saqlash O‘zbekistonning me‘moriy va madaniy merosini muhofaza qilish, tadqiq etish hamda kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo me‘moriy merosini muhofaza qilish, hisobga olish va muzeylashtirish jarayonlari XIX asr oxiri-XX asr boshlarida shakllana boshlab, sovet davrining dastlabki yillarida institusional va huquqiy asoslarga ega bo‘ldi. Bu jarayonda arxeologik va me‘moriy yodgorliklarni davlat ro‘yxatiga olish, ularni ilmiy o‘rganish, restavratsiya qilish hamda muzey fondlariga jalb etish muhim ahamiyat kasb etdi. Qo‘mita faoliyati natijasida Markaziy Osiyodagi ko‘plab tarixiy va me‘moriy ob‘yektlar muhofazaga olinib, ularning ilmiy hujjatlashtirilishi yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, arxeologik germenevtika, fotogrammetriya, fotofiksatsiya va estampaj kabi ilmiy usullarning joriy etilishi yodgorliklarning tarixiy qiymati, xronologiyasi va madaniy mazmunini aniqlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu esa me‘moriy va arxeologik merosni nafaqat saqlash, balki uning ilmiy interpretatsiyasi va muzeylashtirilishi ham yangi bosqichga olib chiqdi.

Natijada, Markaziy Osiyoda madaniy merosni muhofaza qilish va muzeylashtirish sohasida shakllangan ilmiy hamda tashkiliy tajriba keyinchalik O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosni davlat tomonidan muhofaza qilish tizimining rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi. Bugungi kunda ham ushbu tajriba me‘moriy yodgorliklarni saqlash, o‘rganish va kelajak avlodga yetkazishning muhim ilmiy-amaliy asoslarida biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азимов И.М. Архитектура Узбекистана XVIII-нач. XX вв.: Традиции и локальные особенности. Автореферат. 1999 г.
2. Андреев М.С. По Таджикистану (отчёт по экспедиции 1925 года). – Т.: «Востказгосиздат», 1927. 102 с.
3. Аркина Д.Е., Брунова Н.И., Гинзбург М.Я. Всеобщая история архитектуры. Том I-XII. – Москва : Издательство Академии архитектуры СССР, 1944-1946 гг.
4. Бартольд В. Задачи русского Востоковедения в Туркестане. – Петроград, 1915. С.13.
5. Бартольд В. В. Сочинения. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М., 1963.
6. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV вв.: историко-теоретическое исследование. – М., Наука, 1988.-360с.
7. *Городовое положение 1870 года*, Полное собрание законов Российской империи. [https://nnov.hse.ru/ba/law/igpr/gorodovoe\\_polozhenie\\_1870](https://nnov.hse.ru/ba/law/igpr/gorodovoe_polozhenie_1870). Murojaat sanasi: 08.06.2026
8. Лисая Д., Чжан С. Опыт России в защите исторического городского ландшафта. Proc. Hum. Educ. Soc. Sci.2022(1):0001, <https://doi.org/10.55092/phess20220001>.
9. Лыкошин Н.С. К заметке «Туземец-археолог» // Туркестанские ведомости.№ 46. 1912.

10. М. Е. Массон Археологические исследования в Узбекистане (1924-1939)//Наука в Узбекистане на протяжении 15 лет. Ташкент, 1939.
11. М. Е. Массон. Археологические работы в Узбекистане в 1933-1935 гг.// Труды III Международного конгресса по иранскому искусству и археологии. Л., 1939.
12. Массон М.Е. Краткий очерк истории изучения Средней Азии в археологическом отношении. – Ташкент, 1956.
13. Метод работы и полевая жизнь археологической комплексной экспедиции Южного Туркменистана (воспоминания участников). Ашхабад, 1972.
14. Мусин А.Е., Медведева М.В. (тахр.) *Императорская археологическая комиссия (1859–1917): история первого государственного учреждения российской археологии*. Санкт-Петербург, 2019.
15. Нильсен В.А., Манакова В.Н. Архитектурный декор памятников Узбекистана. – Л.: Стройиздат, 1974. -272 с.
16. Полное собрание законов Российской империи. Собрание 2. Т. 45. Отделение 1. СПб., 1873. № 48498. С. 823-839.
17. “Правда Востока” газетаси, 1925 йил 19 август, №184.
18. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л. И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана.- Т.: Гослитиздат, 1958.-292 с.
19. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Очерки искусства Средней Азии: Древность и средневековье. – М.:Искусство, 1982. -288с.
20. Ремпель Л. И. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Т.: Гослитиздат, 1961.-607 с.
21. Туркистон Республикаси Халқ Комиссарлари Советининг 1921 йил 31 июлдаги 177-сонли декрети. Туркестанская ССР. Законы. Сборник декретов, постановлений, приказов и распоряжений Центрального исполнительного комитета Советов Туркестанской республики 10-й сессии. Ч. 1: С 25-го августа по 15-е ноября 1921 г. / Туркестан. Социалистич. Совет. Респ.- Ташкент, 1921. - 76 с.
22. Умняков И.И. Охрана памятников старины и искусства в советском законодательстве Средней Азии. // Известия Средне-азиатского комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы «Средазкомстарис». – Ташкент, 1926. №1.- С.43-55.
23. Шаманаев А.В. Вопросы охраны культурного наследия на всероссийских археологических съездах (вторая половина XIX – начало XX в.): монография. Екатеринбург, 2017.-199 с.
24. Эварницкий Д.И. Коллекция древностей Акрым Аскарва // Туркестанские ведомости. №31. 1892.
25. Юлдашев Ж. Ж. Ўзбекистон Археологияси фани таракқиётида академик М.Е.Массоннинг ўрни. Научно-просветительский журнал “Наставник”. 2020 йил №1. 1-7 бет.
26. [https://ru.wikisource.org/wiki/БСЭ\\_1/Академия](https://ru.wikisource.org/wiki/БСЭ_1/Академия) истории материальной культуры. Мурोजаат санаси: 2 апрель 2025 йил.
27. O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar. I-XX jildlar. – Т.: Uzbekistan today. -2010-2023 уу.